

INSON HUQUQLARI VA ASOSIY ERKINLIKLARINI HIMOYA QILISH BO'YICHA YEVROPA KONVENSIYASI VA UNING QO'SHIMCHA PROTOKOLLARI

Yodgorova Zebo Nurbek qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Yurisprudensiya (Islom huquqi) 2-boqsich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish bo'yicha Yevropa konvensiyasining ahamiyatini va uning qo'shimcha protokollarini tahlil qilinadi. Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan konvensiyaning asosiy prinsiplari va ularning amaliyotdagi qo'llanilishiga e'tibor qaratilgan bo'lib, ushbu hujjatning tarixiy konteksti, yuridik ta'siri va inson huquqlari sohasidagi innovatsion yondashuvlari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Yevropa Konvensiyasi, Yevropa sudi, protokol, Rim shartnomasi*

Abstract: *This article analyzes the importance of the European Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms and its supplementary protocols. Attention is paid to the main principles of the convention adopted by the Council of Europe and their practical application, and the historical context, legal impact and innovative approaches in the field of human rights of this document are considered.*

Key words: *European Convention, European Court of Justice, Protocol, Treaty of Rome*

Inson huquqlari har bir jamiyatning, davlatning asosini tashkil etadi. Amalda inson huquqlarini ta'minlash davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Demokratiyaga, albatta, inson huquqlari kerak. Mamlakatlar urushdan tinchlikka yoki diktaturadan demokratiyaga o'tganda jamiyatda ko'pincha nima ustuvor bo'lish kerakligini hal qilishda qiynaladi: qonuniylikni ta'minlash, xavfsizlikni barqarorlashtirish, siyosiy partiyalar tuzish yoki iqtisodiyotni tiklash. Ko'pgina hollarda, bu o'tish davrlari aynan tarixda davlatlar inson huquqlari bo'yicha shartnomalarni ratifikatsiya qilishga qaror qabul qiladi va bu qaror avtoritar boshqaruvga qaytmaslikka yordam berdi. Inson huquqlarini amalga oshirish vositalaridan biri bir nechta davlatlar tomonidan tuziladigan shartnomalardir. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish bo'yicha Yevropa konvensiyasi Yevropa Kengashi tomonidan inson huquqlarini himoya qilish maqsadida qabul qilgan mintaqaviy shartnomadir. Ushbu konvensiyaga qo'shilgan davlatlar inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish majburiyatini oladi.

Ikkinchi Jahon urushining dahshatlari va vahshiyliklari harakatlarning ko'payishiga olib keldi, ularning barchasi tizim orqali bunday hodisalarning takrorlanishining oldini olishga qaratilgan edi. Bunday hodisalarning asosiy tadbirlari inson huquqlarini himoya qilish va davlatlar o'rtasida o'zaro yaqinroq siyosiy ittifoq

tuzish edi. Shunday hujjatlardan biri Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” bo‘ldi. Ushbu xalqaro shartnoma Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha Yevropa konvensiyasini yaratilishiga turtki bo‘ldi. Dastlab Bryussel kongressida Yevropa Kengashi tomonidan 1949-yil fevralda Yevropa konvensiyasining birinchi loyihasi tayyorlandi. 1950-yilda Rimda va ko‘p o‘tmay Parijda ushbu konvensiya Yevropa Kengashiga a‘zo davlatlar tomonidan imzolandi, shu sababli dastlabki kunlarda konvensiya Rim shartnomasi deb ham atalgan va 1953-yilning sentabr oyida kuchga kirgan. Yevropa konvensiyasini qabul qilgan dastlabki o‘nta davlat ushbu inqilobiy hujjatni totalitarizmga qaytishning oldini olish uchun zarur vosita sifatida qabul qildi.

Konvensiyada belgilangan huquqlar ro‘yxati insonning asosiy huquqlarini va erkinliklarini o‘z ichiga oladi. Ushbu konvensiyaning asosiy huquqiy tabiati bu unda o‘rnatilgan kafolatlarning birgalikda bajarilishidir, ya‘ni biron subyekt tomonidan konvensiya va uning protokollarida belgilangan qoidalar buzilsa, shikoyat va nizolarni ko‘rib chiquvchi mexanizm ishlaydi. Bu mexanizm Yevropa sudidir. Dastlab Yevropa Kengashiga a‘zo davlatlar inson huquqlari rioya etilishini nazorat qilish vakolatiga ega bo‘lgan sudni yaratish kerakmi yoki bu vazifani Yevropa Kengashining Vazirlar Qo‘mitasi amalga oshiradimi kabi qarashlar mavjud bo‘ldi. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi boshqa mintaqaviy sudlar uchun paradigma bo‘ldi. Jumladan, 1979-yilda tashkil etilgan Inson huquqlari bo‘yicha Amerika sudi va Xalqlar huquqlari bo‘yicha Afrika sudi (2006-yil) misol bo‘la oladi.

Yevropa konvensiyasi Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi tomonidan amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslar konvensiyada kafolatlangan huquqlari buzilgan taqdirda Yevropa sudiga murojaat qilishlari mumkin. Sud arizalarni ko‘rib chiqadi va qonunbuzarliklarni aniqlash va jabrlanganlarga adolatni ta‘minlash uchun qarorlar qabul qiladi. Bugungi kunda Yevropa konvensiyasi davlatlar yurisdiksiyasidan huquqiy jihatdan ustuvor bo‘lgan inson huquqlari bo‘yicha monitoring olib borishning ilg‘or tizimi sifatida e‘tirof etiladi. Sud tomonidan qabul qilinadigan qarorlar yakuniy bo‘lib, ularning ishtirokchi-davlatlar tomonidan bajarilishi huquqiy jihatdan majburiydir. Ushbu qarorlarning bajarilishi ustidan Yevropa Kengashining oliy siyosiy idorasi hisoblanmish Vazirlar qo‘mitasi monitoring olib boradi¹⁹. Inson huquqlarini himoya qilishni ham, cheklashni ham davlatga to‘liq qoldirish maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun ham Yevropa konvensiyasi va sudi bu sohada katta ahamiyatga egadir. Yevropa konvensiyasining tizimini inson huquqlarini davlat tomonidan tartibga solish bo‘yicha tashqi tekshiruvning bir shakli deyish mumkin.

Yevropa konvensiyasi 3 bo‘lim va 59 moddadan iborat. Konvensiyaning muqaddimasida demokratiya, qonun ustuvorligi va inson huquqlari chambarchas

¹⁹ Inson huquqlari: darslik/A.RMo‘minov, M.A.Tillaboyev.T.: Adolat B-216

bog'liqligi ta'kidlanadi va uchalasining hech biri ikkinchisiz barqaror mavjud bo'la olmaydi . Misol uchun, inson o'z mamlakatida demokratiya tizimi ishlashini istasa , unga ovoz berish huquqi , erkin matbuot va siyosiy partiyalar erkinligi kabi huquqlari berilishi kerak . Agar biror bir inson yoki davlat organi bilan ziddiyat paydo bo'lsa , bu ish mustaqil va xolis sud vaziyatga qarab , nizoni adolatli hal qilishi kerak. Bu esa qonun ustuvorligi va adolatli sud huquqiga ega bo'lishni anglatadi . Etnik yoki diniy kelib chiqishidan qat'iy nazar insonga teng munosabatda bo'lish ham demokratiya , qonun ustunligi va inson huquqlarini ifodalaydi . Bu kafolatlarning barchasi ushbu Yevropa konvensiyada belgilangan. Ammo ba'zi huquqlar qonun bilan cheklangan bo'lishi mumkin , bu cheklashlar ham inson va jamiyat foydasi uchun o'rnatilgan .

Yevropa konvensiyasining birinchi bo'limi huquqlar va erkinliklarga bag'ishlangan bo'lib , 17 moddani o'z ichiga oladi . Bunday huquq va erkinliklarga yashash huquqi, qiynoqni, qullikni va majburiy mehnatni taqiqlash, adolatli sud muhokamasiga haqlilik, fikr, vijdon , so'z , yig'ilishlar erkinligi, qonunsiz jazolamaslik va boshqa huquqlar belgilangan . Ikkinchi bo'limda esa inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining tashkil etilishi , hakamlar soni , hakamlarni saylash , sud plenumi , qo'mitalar vakolatlari kabi huquq va jarayonlardan iborat . Konvensiyaning uchinchi bo'limi sud plenumi, Vazirlar qo'mitasining vakolatlari , mavjud inson huquqlarini himoya qilish , hududlarning konvensiyani imzolashi , Bosh kotibning so'rovlari kabilarni ifodalaydi .

Yevropa konvensiyasining 1 -moddasida davlatlarni "o'z yuridiksiyasidagi har bir kishi uchun konvensiyada mavjud bo'lgan asosiy huquq va erkinliklarni ta'minlashga " majbur qiladi. Ushbu majburiyatlar inson huquqlarini ta'minlashda ikki xil majburiyatlarni keltirib chiqadi: salbiy va ijobiy majburiyatlar.

Salbiy majburiyatlar nima? Ularning huquqiy tabiati qanday? Salbiy va ijobiy majburiyatlar o'rtasidagi farqlar qanday bo'lishi mumkin? Salbiy deb ataladigan majburiyatlar shuni anglatadiki, davlatlar konvensiyani imzolash va ratifikatsiya qilish orqali konvensiyadagi huquq va erkinliklarni buzmaslik majburiyatini oladi. Misol uchun, so'z erkinligini asossiz cheklamaslik yoki shaxslarning shaxsiy va oilaviy hayotiga to'sqinlik qilmasligi kerak . Salbiy majburiyatlarning asosiy xususiyati, davlatlardan harakat qilmaslikni talab qiladi, ya'ni davlat insonning huquq va erkinliklarini ularning amalga oshirilishiga aralashmaslik orqali hurmat qilishi zarur. Yana misol tariqasida keltirsak, davlat o'z fuqarolariga g'ayriinsoniy munosabatda bo'lmasligi, ularning diniy e'tiqod erkinligiga yoki fikr, yozishmalar erkinligiga aralashmasligi kerak. Bunday majburiyatlardan kelib chiqadigan qoidabuzarliklarni osongina aniqlash mumkin bo'lgan natijada ko'rish mumkin. Davlat ushbu salbiy majburiyatlarga zid harakat qilsa, darhol namoyon bo'ladi, chunki tegishli huquq va erkinliklar to'liq amalga oshirilmaydi.

Ijobiy majburiyatlar davlatning konvensiyadagi huquqlarni himoya qilish uchun harakat qilish kerakligini aniq taqozo etadi. Ular salbiy majburiyatlarga qaraganda murakkabdir va amalga oshirish vositalarini talab etadi. Misol uchun, atrof -muhitni

muhofaza qilish bilan bog'liq majburiyatlar har doim davlat tomonidan ta'minlanishi kerakligi, ya'ni bu davlat harakatini anglatadi. Sud bu majburiyatni "har safar atrof-muhitning yomonlashuvi sodir bo'lganda" paydo bo'ladigan majburiyat emasligini ta'kidlaydi. Konvensiyada belgilangan qoidalar aniq ijobiy majburiyatlarni ifodalamaydi, ular ko'pincha umumiy bo'ladi. Bunda davlatlar o'z vazifalarini amalga oshirishda ma'lum vositalarga tayanadi. Konvensiyada belgilangan bepul tibbiy yordamga bo'lgan umumiy huquqni davlat aniq bir vazifalar bilan amalga oshiradi. O'ta qashshoqlikdan chiqishni ta'minlash, ijtimoiy himoya qilishni davlat o'zi belgilagan vositalar bilan amalga oshiradi, misol uchun, ish bilan ta'minlash, ijtimoiy nafaqa berish, subsidiyalar ajratish, ba'zi bir xizmatlarni bepul qilish kabi uslublardan foydalanadi.

Salbiy va ijobiy majburiyatlarning asosiy farqi shundaki, biri davlatning harakatsizligini, ikkinchisi harakatini talab qiladi, salbiy majburiyatlar natijani, ijobiy majburiyatlar esa vositalarni amalga oshirish kerakligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Yevropa konvensiyasi tizimining tamoyillarining mazmuni inson huquqlaridir. Ushbu tamoyillar quyidagilardan iboratdir: 1. Inson huquqlarini himoya qilishda samaradorlik. Konvensiyadagi qoidalar chiroyli harflar bo'lmasligi kerak, Yevropa sudi ta'biri bilan aytganda, bu huquqlar "nazariy" va "hayoliy" emas, balki "amaliy" va "samarali" bo'lishi lozim. 2. Davlat tomonidan inson huquqlarini himoya qilishning ustuvorligi tamoyili. 3. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi tomonidan nazorat tamoyili²⁰.

Yevropa konvensiyasi qabul qilingandan keyin, unga qo'shimcha ravishda protokollar ham ishlab chiqildi. Bu protokollar Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining samaradorligini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning bir nechta xususiyatlari mavjud. Protokollar dastlabki konvensiyada aniq belgilanmagan yangi huquq va erkinliklarni qamrab oladi va shuningdek, protokollar konvensiyada mavjud huquqlarni mustahkamlaydi va aniq ifoda etadi. Misol uchun, beshinchi protokol konvensiyaning 22 -moddadan 40 -moddagacha bo'lgan qoidalarni batafsil talqin etadi. Yevropa konvensiyasining protokollari inson huquqlarini rioya qilishini kengaytiradi, mustahkamlaydi, ijtimoiy o'zgarishlarga moslashadi va ushbu shartnomaning samaradorligini ta'minlaydi.

"O'lim jazosini bekor qilish to'g'risidagi "6-sonli protokolning 2-moddasida urush paytida o'lim jazosini qo'llash bilan bog'liq qoidalar belgilangandi. Unga ko'ra, davlat o'z qonunchiligida urush paytida yoki yaqinlashib kelayotgan urush xavfi davrida sodir etilgan qilmishlar uchun o'lim jazosini nazarda tutishi, bunday jazo faqatgina qonunga belgilangan hollarda va uning qoidalariga muvofiq qo'llanilishi keltirilgan edi. Keyinchalik, 2000- yilda qabul qilingan "Har qanday sharoitda o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi 13- sonli protokolda yuqorida nazarda tutilgan modda chiqarib

²⁰ **The Idea of Open Societies**

Antoine Buyse

tashlandi. Endilikda, har qanday sharoitda, urush davrida o'lim jazosini tayinlash bekor bo'ldi . Bu o'zgarish ham Yevropa konvensiyasining yanada demokratlashganligini bildiradi . Quyida ayrim protokollarning mazmuni haqida bayon etiladi:

1-protokol Parijda 1952-yil 20 -martda qabul qilingan bo'lib , unda xususiy mulkni himoya qilish , ta'lim olish va erkin saylov huquqini kafolatlaydi . “Qarz, harakat erkinligi, fuqarolarni chiqarib yuborish va chet elliklarni jamoaviy chiqarib yuborishni taqiqlash to'g'risida”gi 4-sonli protokol 1963-yil sentabrda Strasburgda qabul qilingan . Shu protokolni mazmuni to'ldiruvchi “Chet elliklarni chiqarib yuborish bilan bog'liq protsessual kafolatlar , jinoiy ishlar bo'yicha shikoyat qilish huquqi , noqonuniy sudlanganlik uchun kompensatsiya to'g'risida”gi 7-sonli protokol qabul qilindi . 12-sonli protokol Yevropa konvensiyasida belgilangan har qanday huquq va erkinliklardan foydalanishda kamsitishlarni taqiqlovchi qoidalar bayon etilgan.

Konvensiyaning kuchli tomonlaridan biri har tomonlama himoya mexanizmidir. Ushbu hujjat Yevropada inson huquqlarini himoya qilish uchun keng qamrovli asosni tadqim etadi. Shuningdek, u yuridik jihatdan majburiy bo'lgan shartnoma bo'lib , shaxslarga asosiy huquq va erkinliklarini belgilaydi. Boshqa xalqaro hujjatlardan farqli va kuchli tarafi bu Yevropa konvensiyasini amalga oshirilishi va talqin qilinishini ta'minlaydigan Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi tomonidan amalga oshiriladi . Konvensiya individual shikoyatlarni ta'minlashni ham kafolatlaydi. U shaxslarga inson huquqlarini buzilganligi uchun to'g'ridan -to'g'ri Yevropa sudiga shikoyat qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqni anglatuvchi “Xabeas korpus “ institutini ham ushbu konvensiyaning 6 va 7 - moddalarida ko'rish mumkin. Konvensiyaning 5-6 moddalarida Miranda qoidasi belgilangan. Unda hibsga olingan har bir shaxsga hibsga olinganining sabablari va unga qo'yilgan har qanday ayblov to'g'risida darhol o'zi tushunadigan tilda xabardor qilinishi kerakligi , yuridik yordam orqali o'zini himoya qilish , agar imkoni bo'lmasa tarjimondan bepul yordam olish huquqlari kafolatlangan .

Yevropa konvensiyasi inson huquqlarini kengaytirish uchun asos bo'la oladi , yangi huquqlarni tan oladi va huquqlar doirasini kengaytiradi , ijtimoiy ehtiyojlarga moslashadi . Konvensiyaning yana bir imkoniyatlaridan biri bu inson huquqlari bo'yicha boshqa mintaqaviy va xalqaro hujjatlar uchun namuna bo'la oladi. Shuningdek, ushbu konvensiyaga a'zo davlatlar inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha o'zaro hamkorlik qiladi , tajriba almashadi va butun Yevropada inson huquqlariga hurmat qilishi yuzasidan birgalikda harakat qiladi.

Yevropa konvensiyasini ba'zi bir mamlakatlar tanqid qiladi, uning inson huquqlarini himoya qilish standartlariga shubha bilan qaraydilar. Bundan tashqari Yevropa sudida ko'rib chiqilishi zarur bo'lgan ishlarning ko'pligi sababli inson huquqlarini buzilishini samarali hal qilish qobiliyati yo'qolishi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, konvensiya ba'zi kamchiliklarga ega bo'lsada, u o'zining samarali ishlashi, kafolatlangan mexanizmi mavjudligi va boshqa mintaqaviy shartnomalarga namuna bo'la olishi sababli, bu hujjatni o'rganish O'zbekiston qonunchiligiga zarur bo'lgan kerakli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTAR RO'YXATI:

1. Inson huquqlari:darslik/A.RMo'minov, M.A.Tillaboyev.T.:Adolat
2. European Court of Human Rights Council of Europe 67075 Strasbourg cedex France www.echr.coe.int
3. <https://pace.coe.int/en/pages/committee-30/AS-CDH>
4. Smith, Rhona K.M.. *The essentials of Human Rights*. Hodder Arnold, 2005 ISBN 0-340-81574-4.